

**JINOYAT ISHINI YURITISHGA MAS'UL BO'LGAN DAVLAT
ORGANLARI VA MANSABDOR SHAXSLARNING HUQUQIY MAQOMI**

Subanov Olimjon Suyarkul o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi, dotsent (+99893) 551-71-30*

Annotasiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquqiy maqomi, vakolatlari hamda protsessual vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, sud, tergov sudyasi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sud nazorati, inson huquqlari.

**ПРАВОВОЙ СТАТУС ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ И ДОЛЖНОСТНЫХ
ЛИЦ, ОТВЕТСТВЕННЫХ ЗА ПРОИЗВОДСТВО УГОЛОВНЫХ ДЕЛ.**

Аннотация. В данной статье анализируется правовой статус, полномочия и процессуальные обязанности государственных органов и должностных лиц, ответственных за производство уголовных дел, предусмотренных в Уголовно-процессуальном кодексе Республики Узбекистан.

Ключевые слова: уголовный процесс, суд, следственный судья, прокурор, следователь, дознаватель, судебный контроль, права человека.

**LEGAL STATUS OF STATE BODIES AND OFFICIALS
RESPONSIBLE FOR PROCEEDING CRIMINAL CASES.**

Annotation. This article analyzes the legal status, powers, and procedural obligations of state bodies and officials responsible for prosecuting criminal cases, as provided for in the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan.

Key words: criminal procedure, court, investigating judge, prosecutor, investigator, inquiry officer, judicial review, human rights.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi jinoyat ishlarini yuritishda qonuniylikni ta'minlash, adolatli sudlovni amalga oshirish va inson huquqlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning huquqiy asosidir. Kodeksning Ikkinchi bo'limi "Jinoyat protsessi ishtirokchilari" deb nomlanib, u protsessual faoliyatning barcha sub'ektlarini tizimli ravishda qamrab oladi. Ushbu bo'limning 3-bobi aynan "Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar" ga bag'ishlangan bo'lib, u 28-moddadan 39²-moddagacha bo'lgan normalarni o'z ichiga oladi. Bobning tuzilishi davlat hokimiyatining uchta asosiy funksiyasi: sudlov (sud), nazorat (prokuror) va tergov (tergovchi, surishtiruvchi) yo'nalishlariga muvofiq shakllantirilgan.

Ushbu maqolada jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquqiy maqomi, vakolatlari va protsessual vazifalariga amaldagi qonunchilik normalari tahlili asosida to'xtalib o'tamiz.

Jinoyat protsessining eng oliy sub'ekti va odil sudlovni amalga oshiruvchi yagona organ bu – suddir. JPKning 28-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar amalga oshiradi (JPK 28-m.). Sudning huquqiy maqomi uning protsessual bosqichlardagi o'ri bilan belgilanadi: birinchi instansiya sudi jinoyat ishi bo'yicha hukm yoki ajrim chiqarish huquqiga ega, apellyatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyatlar (protestlar) bo'yicha ishlarni ko'rib, hukm yoki ajrim chiqaradi, kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari va ajrimlari ustidan, agar ular apellyatsiya tartibida ko'rilmagan bo'lsa, shikoyatlar (protestlar) bo'yicha ishlarni ko'rib, hukm yoki ajrim chiqaradi, taftish instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiyasi sudida ko'rib chiqilgan hukmlari va ajrimlari ustidan, shuningdek apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiyasi sudining hukmlari yoxud ajrimlari ustidan berilgan shikoyatlar (protestlar) bo'yicha ishlarni ko'rib, hukm, ajrim yoxud qaror chiqaradi. (JPK 28-m.).

Sudning vakolatlari doirasi (JPK 29-modda) juda keng bo'lib, unga nafaqat ishni mazmunan ko'rish, balki shaxsning huquqlarini cheklovchi protsessual majburlov choralarini (qamoqqa olish, uy qamog'i, tintuv o'tkazish, mol-mulkni xatlash va h.k.) qo'llash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish va hukmni ijro ettirish kiradi.

So'nggi yillarda sud islohotlari natijasida yangi institut – tergov sudiyasi instituti joriy etildi. JPKning 31¹-moddasiga muvofiq, tergov sudiyasi sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi. Uning vakolatlariga qamoqqa olish yoki uy

qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish, pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish, lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish, shuningdek, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish va boshqa protsessual harakatlarga ruxsat berish kiradi. Bu shuni anglatadiki, tergov jarayonida inson huquqlariga daxldor eng muhim qarorlar endilikda faqat sud nazorati ostida qabul qilinadi.

Jinoyat protsessida prokurorning o'rni alohida ahamiyatga ega. JPKning 33-moddasiga ko'ra, prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. U qonun buzilishlarini bartaraf etish uchun zarur choralarni ko'rishi shart va o'z vakolatlarni har qanday organdan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida JPKning 243, 382 — 388, 558, 589-moddalarida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi. Prokuror sud muhokamasida qatnashib, JPKning 409-moddasida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi. (JPK 34-m.).

Tergovchi jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni olib boruvchi asosiy mansabdor shaxsdir. JPKning 35-moddasiga ko'ra, tergov olib borish vakolati prokuratura, ichki ishlar, davlat xavfsizlik xizmati va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tergovchilariga berilgan (JPK 35-m.).

Tergovchining vakolatlari (JPK 36-moddada) ishni qo'zg'atish, gumon qilinuvchini ushlash, ayblov e'lon qilish va tergov harakatlarini (so'roq, yuzlashtirish, ekspertiza va h.k.) o'tkazishni qamrab oladi (JPK 36-m.). Tergovchining o'ziga xos xususiyati uning protsessual mustaqilligidir: u tergov yo'nalishi va qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lib, prokurorning ayrim ko'rsatmalariga rozi bo'lmagan taqdirda yuqori prokurorga murojaat qilish huquqiga ega (JPK 36-m.). Shuningdek, tergov bo'linmasi boshliqlari tergovchilarning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi (JPK 37-m.).

Surishtiruv va tergovga qadar tekshiruv bosqichlari jinoyat ishini yuritishning boshlang'ich davrini tashkil etadi. JPKning 38-moddasiga ko'ra, surishtiruv IIO, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining va uning joylardagi bo'linmalarining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining va uning joylardagi bo'linmalarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining va uning joylardagi bo'linmalarining va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining va uning joylardagi bo'linmalarining surishtiruvchilari tomonidan amalga oshiriladi. (JPK 38-m.). Surishtiruvchining vakolatlari tergovchi vakolatlariga juda yaqin bo'lib, u ham ishni qo'zg'atish va tergov harakatlarini o'tkazishga haqlidir (JPK 38¹-m.). Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar (JPK 39¹-modda) esa jinoyat alomatlarini aniqlash, dalillarni to'plash va saqlash, gumon

qilinuvchilarni qidirib topish kabi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni bajaradilar (JPK 39¹, 39²-m.). Bu bosqichda tezkor-qidiruv faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyati jinoyatlarni issiq izidan ochishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, 3-bobda ko'rsatilgan davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ularning vakolatlari qonun bilan qat'iy chegaralangan bo'lib, bu "hokimiyatlar bo'linishi" va "o'zaro tiyib turish" tamoyillarining protsessual ifodasidir. Sudning xolisligi, prokurorning nazorati va tergovchining mustaqilligi jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashning hamda inson huquqlari poymol etilmasligining huquqiy kafolatidir. Ishtirokchilarning ushbu tizimi protsessual adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Xorijiy tajribada jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati

Jinoyat protsessini tashkil etish va jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlarining vakolatlarini belgilash masalasida rivojlangan davlatlar tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina mamlakatlarda sud, prokuratura va tergov organlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti inson huquqlarini samarali himoya qilish hamda odil sudlovni ta'minlashga qaratilgan.

Masalan, Germaniya jinoyat protsessida tergov sudyasi (Ermittlungsrichter) instituti keng qo'llaniladi. Ushbu sudya dastlabki tergov bosqichida qamoqqa olish, tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvlarini eshitish kabi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga daxldor protsessual harakatlarga ruxsat beradi. Bu tizim tergov organlari faoliyati ustidan samarali sud nazoratini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda tergov sudyasi institutining joriy etilishi ham aynan Germaniya tajribasiga yaqinlashish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Fransiya jinoyat protsessida esa tergov sudyasi (juge d'instruction) alohida o'rin tutadi. U murakkab va og'ir jinoyatlar bo'yicha mustaqil tergov olib borish, dalillarni yig'ish hamda ayblov va himoya taraflari manfaatlarini muvozanatini ta'minlash vakolatiga ega. Fransiya modelida tergov sudyasi ijro etuvchi hokimiyatdan mustaqil bo'lib, uning faoliyati inson huquqlarini himoya qilishning muhim kafolatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida jinoyat protsessi tortishuv (adversarial) modeliga asoslanadi. Bu yerda prokuror ayblov tarafini ifodalasa, sud mutlaq xolis arbitraj organi sifatida faoliyat yuritadi. Shaxsni qamoqqa olish, tintuv o'tkazish yoki boshqa majburlov choralarini qo'llash uchun, odatda, sudning sanksiyasi talab etiladi. Bundan tashqari, ayrim og'ir jinoyatlar bo'yicha ayblov e'lon qilishdan oldin katta hakamlar hay'ati (Grand Jury) tomonidan ish materiallari ko'rib chiqiladi.

Buyuk Britaniya tajribasida esa tergov funksiyasi asosan politsiya organlari tomonidan amalga oshiriladi, prokuratura esa tergov yakunlanganidan keyin dalillarning yetarliligini baholab, ishni sudga yuborish masalasini hal qiladi. Bunda

Crown Prosecution Service mustaqil organ sifatida faoliyat yuritib, ayblovning qonuniyligi va asoslanganligini nazorat qiladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy jinoyat protsessida sud nazoratini kuchaytirish, tergov va prokuratura organlarining vakolatlarini aniq chegaralash hamda inson huquqlarini cheklovchi protsessual qarorlarni faqat sud tomonidan qabul qilish tendensiyasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda tergov sudyasi institutining joriy etilishi, sud nazoratining kengaytirilishi va protsess ishtirokchilarining mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar mazkur xalqaro tendensiyalarga mos ravishda amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, xorijiy davlatlar tajribasi jinoyat protsessida hokimiyatlar bo'linishi, protsessual mustaqillik va inson huquqlarini samarali himoya qilish tamoyillarining amaliy ahamiyatini namoyon etadi hamda O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining Ikkinchi bo'limi, xususan, 3-bobi jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquqiy maqomi hamda vakolatlarini aniq belgilab berish orqali jinoyat protsessining samarali va qonuniy amalga oshirilishini ta'minlaydi. Sud, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi faoliyatining qonun bilan qat'iy tartibga solingani jinoyat ishlarini yuritishda hokimiyatlar bo'linishi, o'zaro tiyib turish va muvozanat tamoyillarining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sud odil sudlovni amalga oshiruvchi yagona organ sifatida protsessning markaziy sub'ekti bo'lib, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Prokuror qonuniylik ustidan nazoratni ta'minlasa, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat holatlarini aniqlash, dalillarni to'plash hamda ishning har tomonlama, to'liq va xolisona tergov qilinishini ta'minlaydi. Ayniqsa, tergov sudyasi institutining joriy etilishi sudga qadar ish yuritish bosqichida inson huquqlarini himoya qilishning qo'shimcha kafolatlarini yaratdi va sud nazoratining rolini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Xorijiy davlatlar tajribasi ham jinoyat protsessida sud nazoratini kengaytirish, tergov va prokuratura organlarining vakolatlarini aniq chegaralash hamda inson huquqlarini cheklovchi qarorlarni mustaqil sud tomonidan qabul qilish zamonaviy huquqiy davlatning muhim talabi ekanligini ko'rsatmoqda. Germaniya, Fransiya, AQSh va Buyuk Britaniya tajribasi jinoyat protsessining turli modellarida inson huquqlarini himoya qilish, protsessual mustaqillik va adolatli sudlovni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilganini namoyon etadi.

Shu bois, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari, xususan, tergov sudyasi institutining joriy etilishi, sud nazoratining kengaytirilishi hamda jinoyat protsessi ishtirokchilarining mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan chora-

tadbirlar milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Natijada jinoyat protsessida qonuniylik, adolat va inson huquqlarining ishonchli himoyasi ta'minlanib, huquqiy demokratik davlat qurishning muhim shartlari mustahkamlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T., 2023;
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. –T., 2026.;
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. –T., 2026.;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyungi «Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-89-son Farmoni.